

“AL-JOME’ AS-SAHIH” ASARIDA HADISLAR TASNIFI**Olimova Qizlarxon****Farg’ona Davlat Universiteti Filologiya Fakulteti Tillarni O’qitish
O’zbek Tili Yo’nalishi Talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20023011>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Al-Jami’ al-Sahih”¹ asarining yaratilish tarixi, tuzilishi, ilmiy-uslubiy xususiyatlari, hadis ilmidagi tutgan o’rni va o’ziga xos jihatlari yoritiladi. Imom Muhammad al-Buxoriy tomonidan yaratilgan ushbu nodir manba islom olamida “Qur’on”dan keyingi eng ishonchli manba sifatida e’tirof etiladi. Maqolada asarning boblar tizimi, hadis tanlash mezonlari, roviylarga qo’yilgan talablar, fiqhiy va axloqiy ahamiyati hamda Sharq va o’zbek olimlarining bu asar haqidagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: hadis, sahih hadis, Imom Buxoriy, roviy, isnod, matn, hadis ilmi, fiqh, muhaddislik.

Sharq tamadduni va islom ilm-fani rivojida hadis ilmi alohida ahamiyat kasb etadi. Hadislar musulmonlar hayotida “Qur’oni karim”dan keyingi ikkinchi muhim manba sifatida diniy, axloqiy va huquqiy masalalarni tartibga solishda katta o’rin tutadi. Ana shunday bebaho manbalardan biri Imom Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asaridir. Bu kitob hadis ilmining eng mukammal namunasi bo’lib, o’zining ishonchliligi, ilmiy puxtaligi va mukammal tartibi bilan boshqa hadis to’plamlaridan ajralib turadi. Imom Buxoriy 16 yil davomida ushbu asarni yaratgan va olti yuz mingga yaqin hadis ichidan eng ishonchli deb topilganlarini saralab kiritgan. Shu jihatdan asar nafaqat diniy, balki ilmiy manba sifatida ham alohida qadrlanadi.

Imom Buxoriy ustozlari tavsiyasi asosida faqat sahih hadislarni jamlashga kirishadi. Rivoyatlarga ko’ra, ustozlaridan biri — Ishaq ibn Rahashayh “Sizlar sahih hadislarni alohida kitob qilib jamlasangiz edi”, degan fikrni bildiradi. Ana shu g’oya buyuk asar yaratilishiga turtki bo’lgan. Asar to’plash jarayonida Imom Buxoriy ko’plab mamlakatlarni kezib, hadis roviylari bilan uchrashgan, rivoyatlarni solishtirgan va ularni qat’iy mezonlar asosida saralagan.

Asarning eng muhim xususiyati — hadislarni tanlashdagi qat’iylikdir. Imom Buxoriy hadisni sahih deb qabul qilish uchun: ²

isnod zanjiri uzluksiz bo’lishi;

barcha roviylar ishonchli bo’lishi;

roviylar bir-biri bilan uchrashgan bo’lishi; hadis matni boshqa sahih rivoyatlarga zid kelmasligi;

yashirin nuqsonlardan xoli bo’lishi kerakligini belgilagan.

Bu mezonlar boshqa muhaddislar mezonlaridan ham qat’iyroq hisoblanadi.

Asar fiqhiy mavzular bo’yicha bob va kitoblarga bo’lingan. Tahorat, namoz, zakot, haj, savdo, nikoh, axloq kabi masalalar bo’yicha tartib berilishi uni faqat hadis to’plami emas, balki fiqhiy qo’llanma darajasiga olib chiqadi. Bu uslub keyingi hadis to’plamlariga namuna bo’lgan. Asarda ayrim hadislar takror uchraydi. Ammo bu kamchilik emas, balki ilmiy uslubdir. Bir hadis turli boblarda turli fiqhiy ma’nolarni yoritish uchun keltirilgan. Bu hol asarning chuqur mantiqiy tuzilganini ko’rsatadi.

Quyida ba’zi hadislarni tahlil qilamiz.

¹ O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

² Al-Hokim Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdulloh Muhammad Naysaburiy. “Ma’rifatul ulumul hadis”. Darul kutub ilmiyya. Bayrut. B. 59

Sahoba Ammor aytganlar: "Uchta hislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq.

Rasululloh sallolohu alayhi va sallamdan bir kishi so'radi: "Islomda eng yaxshi hislatlar qaysidir?" .Dedilar: "Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik".

Yuqoridagi keltirilgan hadis ham axloqiy mazmundagi asar bo'lib, unda inson umri davomida amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar keltirilgan. Bundan tashqari axloq mavzusidagi hadislarning ko'pligi hadis ta'sirchanligini oshiradi.

Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamoq'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i.

Asarning yana bir o'ziga xos tomoni — bob sarlavhalarining o'zida fiqhiy hukmlar mujassamligi. Bu "Tarojim al-abvob" deb yuritiladi. Ko'pincha Imom Buxoriy o'z fiqhiy qarashlarini aynan bob nomlari orqali ifodalagan. Qur'on va hadis uyg'unligi. Asarda ko'plab boblar Qur'on oyatlari bilan boshlanadi. Bu esa hadis va Qur'on o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

ilmga rag'bat kabi masalalarni ham qamrab oladi. Bu jihatdan asar ma'naviy tarbiya manbai hamdir.

"Al-jome' as-sahih" keyingi muhaddislar faoliyatiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Sahih Muslim, Sunan Abu Dawud kabi to'plamlar shakllanishida ushbu asar metodologiyasi muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ham madrasa, islom universitetlari va ilmiy markazlarda asosiy manba sifatida o'rganiladi.

Xulosa:

"Al-jome' as-sahih" — hadis ilmining eng mukammal va ishonchli durdonasi. Uning o'ziga xosligi hadis tanlashdagi qat'iy mezonlar, boblar tizimi, isnodga yuksak e'tibor, fiqhiy xulosalarning nozik berilishi va tarbiyaviy qimmatini bilan belgilanadi. Shu sabab bu asar asrlar davomida musulmon dunyosida yuksak e'tirof etilib kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sahih Muslim. Imom Muslim.
2. Al-Adab al-Mufrad. Imom Buxoriy.
3. Hadis ilmi va mustalahi. Abdulaziz Mansur.